

BADIIY DID VA USLUBIY IDROK

<https://doi.org/10.70728/orien.v07.i02.038>

Raximov Kodirjon Karimberdiyevich
Namangan davlat universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi va keying avlod yoshlari uchun kerakli bo'lgan eng zarur omil va bilim ko'nikmalar aks etgan. Badiiy did va uslubiy idrok, har bir inson uchun zarur bo'lganligi qayd etilgan. Ijodkorning ijodi bilan bog'liq bo'lgan, san'atkorning zarur bo'lgan did va idroki haqida yoritib berilgan. San'atkor xalqi bu borada boshqalarga o'rnak bo'lib hayot tarzini yanada mazmunli o'tashini ko'rsatib bergan va avloddan-avlodga to'laonli o'tishini nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: badiiylik, go'zal va nafis san'at, did, ansambl sinfi, estetik zavq, ijodkorlik

ARTISTIC TASTES AND STYLE PERCEPTION

Rakhimov Kodirjon Karimberdiyevich
Namangan State University

Abstract: This article reflects the most necessary factors and knowledge and skills necessary for the youth of the present and future generations. It is noted that artistic taste and style perception are necessary for every person. It is highlighted the necessary taste and perception of the artist, which are associated with the creativity of the creator. The artistic people set an example for others in this regard, showing a more meaningful way of life and ensuring its full transfer from generation to generation.

Keywords: artistry, beautiful and elegant art, taste, ensemble class, aesthetic pleasure, creativity

Badiiy did-hayotda voqelik bilan bog'liq barcha ma'lumotlarni, ijodiy-ijobiy ko'nikmalarni eng chiroyli va nafis san'atlar yordamida his etish va tortiq etishdir. Bu narsa uchta jarayon bilan bog'liq.

1-Ijodkor

2-Qabul qiluvchi

3-Nazorat qiluvchi

Badiiylashtirish ijodiyotning eng muhim xususiyati bo'lib, bu jaroyonda ijodkordan juda ko'plab bilim talab qilinadi, chunki bir jumlaning bir necha bor qaytadan

yoziq chiqilidai yoki amalda ijro qilib ko'riladi. Ana shunda bir asar yoki she'r tug'iladi va uzoq umr xalq orasida o'z ijobiy ta'sirini ko'rsatib beradi.

"Badiiy - voqelikni nafis san'at vositalari, obrazlar orqali ifoda etuvchi tasvirlocchi" 1. Did esa - "Go'zallikni, nafosatni, his etish, undan estetik zavq olish estetikasi" 2. Demak, musiqa voqelikni, hayotni tabiatni musiqiy ohanglarda go'zal va nafosat bilan ifoda etishdir. Bu omillarning negizi, yuksak did bilan, estetik zavq oladigan darajada idroklashdan iborat bo'ladi.

Har bir xonanda va sozandadan eng avvalo iste'dodi, eslash, xotira, bilim, ovoz va talqin etish qobiliyatiga ega bo'lish tavsiya etilsa, ikkinchi jarayonda badiiy did, ya'ni asarni eng go'zal va nafosatli ifoda etish, uchun imkoniyatlari, badiiy ifodalovchi xususiyatlari bo'lishi muhim hisoblanadi. Zero xonandalar yuksak estetik talablarga javob beradigan ijroviy xususiyatlarni o'z ijro va talqinlarida shakllantirishlari muhimdir.

Musiqiy namunalarning mukammal darajada, o'ta ifodaviy talqini xonandaning barcha ijroviy jihatlar qatorida badiiy mahorati va badiiy didiga ham bog'liq bo'ladi. Xalqimizda juda ham chiroyli ishlangan, ya'ni "did bilan ishlangan" degan iboraning ma'nosi, mohiyati shunday mahorat va xislatlar mujassam topganligiga guvoh bo'lamiz." Bunday did -deb yozadi S.Begmatov va N.Qodirovlar o'zlarining "Ansaml sinfi" kitobida, -ko'p jihatli tushunchadir. Uning tarkibiga ish faoliyatining ilk mashg'ulotlaridan boshlab, sahna chiqishlarigacha bo'lgan ijodiy jarayon kiradi. Zero, badiiy did san'atkor madaniyatida o'z faoliyatining asosi hisblanadi. Uni kasbga, zamonga, yoshga nisbatan shakllantirish, tarbiyalashhamda rivojlantirish lozim"3.

Darhaqiqat, badiiy did xonandalarning, ya'ni ansaml ijrochilarining kasbiy mahoratini egallashlari vaqtida shakllanib, rivojlanadi. Bu borada san'at asarlarini tinglovchilarga taqdim etishda ahamiyatli omillar qatoridan joy oldadi. Bu omillar o'z-o'zidan xonandalar uchun ahamiyatli bo'lgan yana bir jihatni, ya'ni munosabatni shakllantirishga undaydi. Ansaml xonandasi har bir ijro etadigan asarining tarixi, qaysi davrga mansubligi, ijodkor bastakori, janri, matnlariga e'tiboran yondashishi va boshqa kasbiy jihatlarini o'zlashtirishi lozim. Bu, eng avvalo, xonandaning o'zi kuylaydigan asarga nisbatan munosabati bo'lsa, ikkinchidan, asarni tinglovchilarga havola etish mezonida bevosita ijroviy muloqot munosabatini belgilab olishga zamin bo'ladigan muhim tomonlar hisoblanadi. Shuning uchun ushbu jihatlar xonandaning kasbiylik darajasida kuylash uslubini o'zlashtirishida juda kata ahamiyatga ega. Yuqorida aytib o'tilgan ansaml xonandalarning musiqiy namuna va uning talqini bilan bog'liq holatlarda o'zlashtirishi lozim bo'ladigan an'anaviy va merosiy badiiy didi va munosabatini bildiradi. Uni idroklab ijro etganda esa, an'anaviy ijrochilik sohasida o'zlashtirilgan bilim darajasida shaxsiy talqin didi o'zini namoyon etadi. Chunki, har bir davr o'zining ma'naviy va madaniy dunyoqarashi, zamonasining rivoji bilan bog'liq taraqqiyot madaniyatiga ega. Ayni paytda xalqimizning butun dunyo

xalqlari kabi turmush-tarzi, madaniyati kun sayin rivojlanib bormoqda. Hozirgi kunda yosh ijodkor xalqimiz orasidagi ko'p sohalardagi insonlar ham turli-xil davlatlarga tashrifi tufayli ham fikr almashib, sharq xalqlarining madaniyati bilan uzviy bog'lanib, o'rganib kelmoqda yoki o'z milliy madaniyatimizni boshqa xalqlar orasida namuna sifatida o'rgatib ham kelmoqda. Masalan ota-onaga hurmat, ularning oldida axloq-odob bilan so'zlashib, boshqalarga namuna bo'la oladi. Ularga yuqori did va farosat bilan e'tibor berishimiz yaqqol misol bo'ladi.

Barcha sohalarda kun sayin olamshumul ahamiyat kasb etuvchi, kishini quvontiruvchi va ilm-fanga munosib hissa qo'shayotgan yutuqlarga erishmoqda. Ma'naviy darjasi, madaniyati, didi, san'atga bo'lgan talablar ham brogan sari kuchaymoqda. Xalqimizning estetik tarbiyalash, barkamol avlodni ijodiy va ijobiy ishlarga yo'naltirish, ularning ma'naviy yuksalishiga davlatimiz rahbari tomonidan kata imkoniyatlar va e'tibor ko'p qaratilmoqda.

An'anaviy xonandalik sohasida badiiy did nafaqat shaxsiy balki, hamnafaslar didi bilan uyg'unlashishini talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Yu.Rajabiy. Musiqa merosimizga bir nazar. -Toshkent, 1978.
2. Matyoqubov O. Maqomot.- Toshkent, 2004.
3. Begmatov S. Hofizlik san'ati.- Toshkent, 2009.
4. Inatullaev B. B. MADANIY-MA'RIFIY FAOLIYATDA TARBIYAVIY JARAYONNI TASHKIL ETISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI //Inter education & global study. - 2024. - №. 9. - C. 103-113. <https://cyberleninka.ru/article/n/madaniy-marifiy-faoliyatda-tarbiyaviy-jarayonni-tashkil-etishning-nazariy-uslubiy-asoslari>
5. INATULLAEV, B. (2020). TA'LIM SAMARADORLIGINI YAXSHIRISHDA FAN, TA'LIM VA ISHLAB CHIQRISHNING INTEGRATSIASI. IJTIMOIIY TADQIQOTLAR JURNALI, 7 (3), 65-72. <https://elibrary.ru/item.asp?id=75905733>